

Sana: 1.03.2013

Sinf: 9B

Fan: Tarix

Mavzu: Jadidchilik harakatining vujudga kelishi.

Maqsad:

a) O`quvchilar Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, jadidchilik g`oyalarining paydo bo`lishi haqida bilib oladilar.

-O`quvchilarga Ismoil G`aspiralining Turkiston jadidlari faoliyatiga qo`shgan hissasi haqida ma`lumot berish millatlar aro totuvlikni o`stirish

-Ajdodlarimiz merosini o`rganishga bo`lgan munosabatlarini yanada rivojlantirish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: Klaster, "Hamma bir-biriga o`rgatadi" mashqi

Dars jihozi: Darslik, texnika asboblari slayd, Jadid allomalarining rasmlari.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism (2 daqiqa)

1.O`qituvchining salomlashishi, jurnalga yo`qlama qilish.

2.Sinf o`quvchilarini darsga jalb qilish, ish muhitini yaratish

3.Dunyoda, jumladan, O`zbekistonda ro`y berayotgan so`nggi voqealardan xabardor bo`lish.

II. O`tilgan mavzuni takrorlash.(15 daqiqa)

Mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida Qoraqalpoqlar madaniyati
Bu vazifa Klaster uslubi orqali bajariladi. Fikrlarning tarmoqlanishi- pedagogic strategiya bo`lib, o`quvchilarning biron-bir mavzuni chuqur o`rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog`langan ketma-ketlikni tarmoqlashni o`rgatadi.

Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:

1.Xayolga kelgan har qanday fikr bir so`z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi.

2.Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa, u holda yangi bir fikr kelguncha qanday bir rasm chizib turiladi.

3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o`zaro bog`liqlik ketma-ketligini ko`paytirishga harakat qilinishi lozim.

1-guruhga:

Xalq og`zaki ijodiyoti haqida ma`lumot bering.

2-guruhga:

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qoraqalpoqlarda memorchilik haqida so`zlab bering.


3-guruhga:

Ajiniyoz Qasiboy o`g`li haqida so`zlab bering

4-guruhga:

Berdaq haqida ma`lumot bering

Masalan:



III. Yangi mavzuni tushuntirish (8 daqiqa)

1.O`rta Osiyoda Jadidchilik Harakatining vujudga kelish shart sharoitlari

2.Jadidchilik harakatining vujudga kelishi

3.Taraqqiyparvarlik harakatining O`rta Osiyoga yoyilishi

Rossiya Imperiyasi tomonidan O`rta Osiyo Xonliklarining zabt etilishi ushbu hududni tanazzulga yuz tutishiga, jahonning rivojlangan davlatlaridan ko`p sohalarda orqada qolib ketishiga, milliy qadriyatlarni toptalishga olib keldi.

Har bir jamiyatdagi O`zgarishlar o`z davrining tarixiy sharoitidan kelib chiqib namoyon bo`ladi.Bu o`zgarishlarda tarixiy shaxslar, ayniqsa, ziyolilarning o`rni katta bo`lib, ularning har biri o`ziga xos ilg`or g`oyalarni ilgari suradi.

Turkiston o`lkasida millat istiqbolini o`ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari-hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi.Maorif sohasida ham imperiya manfaatlaridankelib chiqib, mahalliy aholini savodsizlikka,qoloqlikka tutib turishga qaratilgan siyosat olib borildi.

Ziyolilar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish yo`llarini topishga harakat qiladi.Xuddi shunday jarayon XIX asrning ikkinchi yarmida

Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan Qrim, Kavkazorti, Turkiston, protektoratga aylantirilgan Buxoro amirligi va Xiva Xonligida ham ro'y berdi.

Ismoil G'aspiralining 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoro tashrifi ma'rifatparvarlik g'oyalarining keyingi rivojiga turtki bo'ldi. 1893-yil Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko'rsata boshlagan.

Keyinchalik bunday maktablar boshqa hududlarda ham keng tarqala boshladi.

Qrim-Tatar ma'rifatparvari bo'lgan Ismoil G'aspirali (1851-1914) butun turkiy xalqlar orasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi bo'ladi.

Turkistonda mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik harakatlari bilan bir qatorda mahalliy aholining aksariyat qismi o'zlikni saqlab qolish, milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishni bir kun bo'lsa ham unutmadi.

IV.O`tilgan mavzuni mustahkamlash (15 daqiqa)

1. “Hamma bir-biriga o`rgatadi” mashqi.Sinf o`quvchilari 5-6 kishilik kichik guruhlariga bo`linadilar.Guruhlarga bugun o`tilgan mavzu matnidan bir parcha beriladi.Guruhlar matnni o`qib o`rganadilar va har guruhdan yana bittadan yangi guruh tuziladi. Yangi guruhda galma-galdan har brir o`quvchi avvalgi guruhda o`rgangan matnni gapirib beradi.
2. O`qituvchi mavzuga oid savollar yoki tushunchalar bilan sinfga murojaat qilib, o`quvchilarning bugungi darsdan olgan taasurotlarni bilib oladi.

V. Dars yakunlarini chiqarish (3 daqiqa)

1. Mavzuga doir asosiy tushunchalarni takrorlash.
- 2.O`quvchilarda paydo bo`lgan savollarga javob berish
- 3.Baholarni e`lon qilish.

IV. Uyga vazifa (2 daqiqa)

- 1.Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash.
2. Yangi mavzu matni bilan tanishib kelish.